

## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Huquq fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="185 400 640 699"><b>Shaxslarning davlat chegarasi va chegaraoldi hududlariga kirish, bo‘lish hamda faoliyat yuritishga oid murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonlarini raqamlashtirish</b></p> 	<p data-bbox="741 355 1093 387"><b>Tadqiqot shakli:</b> Amaliy.</p> <p data-bbox="741 392 1106 424"><b>Ilmiy tadqiqot natijalari:</b></p> <p data-bbox="674 432 2058 536">shaxslarning bu xususidagi murojaatlarini tahlil qilish maqsadida chegaraoldi hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar bilan so‘rovnomalar o‘tkaziladi hamda ularning murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalari tahlil qilinadi;</p> <p data-bbox="674 544 2058 616">shaxslarning Davlat chegarasi va chegara mintaqasiga kirishi, bo‘lishi, xo‘jalik va boshqa faoliyatni olib borishi mazmunidagi murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba tadqiq qilinadi;</p> <p data-bbox="674 624 2058 727">shaxslarning bu boradagi murojaatlarini ko‘rib chiqishni tartibga soluvchi DXXning ichki idoraviy hujjatlari tahlil qilinadi va mavjud muammolar ilmiy diagnozdan o‘tkazilib, natijalari bo‘yicha o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqiladi;</p> <p data-bbox="674 735 2058 839">byudjet mablag‘larini iqtisod qilish hamda Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari ish samaradorligini oshirish maqsadida shaxslarning bu boradagi murojaatlarini ko‘rib chiqishning ilmiy jihatdan asoslantirilgan algoritmi va metodikasi ishlab chiqiladi;</p> <p data-bbox="674 847 2058 919">amaliy tadqiqot doirasida shaxslarning bu boradagi murojaatlarini ko‘rib chiqishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqiladi;</p> <p data-bbox="674 927 2058 1031">amaliy tadqiqot doirasida bu kabi murojaatlarini ko‘rib chiqishdagi zaruriy DXXning axborot tizimlari integratsiya qilinadi hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yangi platforma yaratiladi.</p> <p data-bbox="674 1038 2058 1142"><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish.</b> Olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga qarashli tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida <b>O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining</b> xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="674 1150 2058 1294"><b>Ilmiy natijalarni chop etish.</b> Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="674 1302 2058 1366"><b>Izoh.</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar <b>O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining</b> qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>